

ALISHER NAVOIYNING "LISON UT-TAYR" ASARIDA TASAVVUFIY
ATAMALAR TADQIQI

Qahhorova Zarinabonu Abdurasul qizi

Qarshi davlat universiteti Filologiya fakultet Filologiya va tillarni o`qitish o`zbek tili yo`nalishi
talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodiyoti, uning falsafiy ruhda yozilgan "Lison ut-tayr" asari hamda asarda qo`llanilgan tasavvufiy atamalar tahlili haqida so`z boradi.

Kalit so`zlar: Alisher Navoiy, "Lison ut-tayr", tasavvuf, tasavvufiy atamalar, falsafa, poeziya.

Аннотация: В данной статье рассматривается творчество Алишера Навои, его философское произведение "Лисон ут-тайр", а также анализ суфийских терминов, использованных в этом произведении.

Ключевые слова: Алишер Навои, "Лисон ут-тайр", суфизм, суфийские термины, философия, поэзия.

Annotation: This article discusses the literally legacy of Alisher Navoi, focusing on his philosophically inspired work "Lison ut-tayr" and the analysis of the Sufi terms in it.

Key words: Alisher Navoi, "Lison ut-tayr", Sufism, sufi terms, philosophy, poetry.

Alisher Navoiy, klassik o`zbek adabiyotining buyuk namoyandalaridan biri bo`lib, o`zining chuqur falsafiy qarashlari, adabiy sohaga qo`shgan hissasi bilan keng tanilgan. Uning ko`plab asarlari orasida "Lison ut-tayr" falsafiy jihatdan boy va tasavvufiy bilimlarni o`z ichiga olgan noyob asar sifatida ajralib turadi. Ushbu asar nafaqat inson ruhi va uning ilohiylik bilan bog`liqligini chuqur tahlil qilgan, balki tasavvuf dunyoqarashini tushunishda muhim manba hisoblanadi.

Ushbu maqolada "Lison ut-Tayr" asarida ishlatilgan tasavvufiy atamalar tahliliga hamda asardagi falsafiy mavzularni o`rganishga alohida e`tibor qaratiladi. Bu atamalarni o`rganish orqali Navoiy ijodiyotidagi chuqur ma`nolarni ochib berish va uning adabiy asarlariga tasavvufiy tafakkurining ta`sirini aniqlash maqsad qilingan. Falsafa va tasavvufning asardagi o`zaro aloqasini tahlil qilish orqali Alisher Navoiy ijodining madaniy va ruhiy mohiyatini yaxshiroq tushunish imkoniyatiga ega bo`lamiz.

Alisher Navoiyning mashhur falsafiy dostoni "Lison ut-tayr" asari mutafakkirning hijriy hisobda oltmish yoshga qadam qo`yganda yozilgan, Bu haqida shoirning o`zi dostonning ikki bobida alohida to`xtalib o`tadi:

Oltmishqa umr qo`yg`onda qadam,
Qush tilin sharh etgali yo`ndum qalam.
Yil to`qiz yuz oltmish erdi dog`i to`rt,
Kim ulusning ko`ngliga soldi bu o`rt,
Ham bu tarix ichrakim qildim shuro``,
Ixtimomiga dog`I bo`ldi vuqu`. (12-tom, 295, 302)

Alisher Navoiy oltmish yoshga qadam qo`yganida ushbu falsafiy, diniy mazmunga yo`g`rilgan asarni yozganining sababi "Bu kitob nazmida o`z munosabatining taqribi" deb

atalgan bobi(189)da ma`lum darajada bayon etilgan.Uning mohiyati shundan iboratki,Fariduddin Attorning "Mantiq ut-tayr" asari Alisher Navoiyning hali madrasada o`qib yurgan chog`laridayoq uning e`tiborini qozonib,muhabbatiga sazovor bo`lgan.Navoiy asarga shunchalik mehr qo`yadi,hatto asarni shunchalik ko`p o`qiganligidan uni yodlab ham olgan edi va uni takrorlab yurardi.Bu holatdan tashvishlangan Navoiyning ota-onasi farzandiga ushbu asarni o`qishni man qilibgina qolmay,kitobni berkitib ham qo`yishadi.

Navoiy shunday yozadi:

Lek chun yodimda erdi ul kalom,
Yoshurun takror etar erdim mudom.
Ondin o`zga so`zga maylim oz edi,
Qush tili birla ko`ngul hamroz edi.

Bundan yaqqol ko`rinadiki,Navoiy yoshlik davrlaridanoq Attorning "Mantiq ut-tayr" asariga javob yozishni niyat qilib, ko`nligiga tugib qo`ygan.Va bu orzu shoirning oltmish yoshida amalga oshdi.

Farididdin Attor XII asrning eng ulug` va mashhur shoirlaridan biri bo`lib, o`zining "Ilohiynoma", "Mantiq ut-tayr", "Tazkirat ul-avliyo" asarlari bilan o`z davri hamda keyingi davrlarning ham adabiy ma`naviy hayotida katta mavqega ega bo`lgan.Shoir o`z asarlarida orifona muhabbatni tarannum etadi.Va uning tasavvufona talqinlari Navoiy e`tiborini tortgan jihat edi:

Haq munung nutqin chu go`yo ayladi,
"Mantiq ut-tayr"ni oshkoro ayladi.
Bu til izohin kamohiy aylabon,
Sharhi asrori ilohiy aylabon...
Va shu o`rinda o`z asari haqida ham eslab o`tadi:
Ulcha asroring manga erdi ayon,
Ayladim qushlar tili birla bayon.

Bunda Alisher Navoiy "Lison ut-tayr" asarining mavzusi va uni ochib berishidagi o`ziga xoslik bayon etilgan.Ya`ni,doston tasavvufiy mavzuda ("Sharhi asrori ilohiy") bo`lib,bu mavzu qushlar tili vositasi orqali majoziy ma`noda ifoda etilgan.

"Lison ut-tayr" o`zbek tilida yozilgan bo`lsa ham,unda Navoiy emas,Foniy taxallusini qo`llaydi.

Alisher Navoiy "Lison ut-tayr" da "sharhi asrori ilohiy" masalasi bevosita hazrati inson va uning bilan bog`liq bo`lgan muammolarni bayon etish,sharhlash yo`nalishida hal qilinadi.Shu sababli asarning "Hamd" bobida Navoiy quyidagicha fikr bildirib o`tadi:

Ofarinisdin qilib inson g`araz,
Oni aylab xalq ichinda beavaz.
Ko`nglin oning maxzani irfon qilib,
Ul tilsim ichra o`zin pinhon qilib.

Dostonning asosini tashkil etgan qushlarning Simurg` tomon intilishlari va ularning bu yo`lda boshdan kechirgan sarguzashtlari,shu munosabat bilan keltirilgan turli hikoyat va masallarda ham aynan shu bosh masala ,bosh yo`nalish bo`lib xizmat qiladi.Asarning asosini Hudhud va qushlarning sayohati tashkil etadi.Bu sayohatning maqsadi shundan iborat ediki,qushlar o`z podshohlarini toppish maqsadida Simurg`ni izlashga qaror

qiladi. Simurg` ular uchun ilohiy haqiqat, poklik va mukammallikning ramzi hisoblanadi. Hudhud ular ichida eng donishmandi bo`lib, qushlarni Simurg`ni izlash yo`lida yo`lboshchisi bo`ladi. Ular safar davomida yeti vodiyni bosib o`tdilar. Bu vodiylarning har biri ma`naviy kamolot bosqichlarini bildiradi:

Talab vodiysi-ilm va haqiqatni izlash, Ishq vodiysi-fidoiylik va muhabbat sinovi, Ma`rifat vodiysi-ilm va hikmat orqali haqiqatni anglash, Istig`no vodiysi-dunyo lazzatlari va manfaatlaridan voz kechish, Tavhid vodiysi-haqiqatni yagona deb tan olish, Hayrat vodiysi-mavjudlikning sir-asrorlariga hayratlanish, Fano vodiysi-o`zini yo`qotish va ilohiylikka g`arq bo`lish.

Sayohat so`nggida faqatgina 30 ta qush manzilga yetib keladilar. Uni topishganida esa, ular "Simurg`" aslida o`zlari ekanligini anglashadi (forscha, se-30, murg`-qush). Bu haqiqatni o`zida anglash, ya`ni insonning haqiqatni o`z qalbida topishi, o`zini mukammallashtirishi va ma`naviy birligiga erishishi kerakligini anglatadi. Dostonda sayohat insonning ma`naviy, ruhiy kamoloti yo`li ramzidir. Hudhud –ustoz yoki yo`lchi ramzi bo`lsa, Simurg` ilohiy haqiqat va mukammallikning timsolidir. Yetti vodiyni bosib o`tish esa insonning o`z nafsini tarbiya qilib, ilohiylik sari intilishidir. Asar tasavvufiy yo`lda o`zlikni yo`qotib, ilohiylik bilan birlashish g`oyasini ifodalaydi. Ya`ni, fanodan voz kechib, boqiylikka intilish tamoyili bunga to`la mos keladi.

"Lison ut-tayr"da qo`llanilgan tasavvufiy atamalar asarning nafaqat badiiy go`zalligini, balki tasavvuf falsafasining chuqur mazmunini ochib beradi. Ushbu atamalar orqali Navoiy insonning ruhiy kamoloti yo`lini tasvirlar ekan, ular asar mohiyatiga chuqur ma`no baxsh etadi. Shu tariqa, tasavvufiy qarashlar nafaqat diniy falsafiy mazmunni yoritadi, balki asarning ma`naviy qiymatini yanada oshiradi. Quyida ulardan ayrimlari misol tariqasida keltirib o`tilgan:

Alloh-Ismi A`zam, ya`ni buyuk Yaratuvchining eng buyuk va eng muazzam ismi. Butun borliqni yaratgan yakka-yu yagona oily kuch; o`z zotiga ko`ra yakka-yu yagona, barchaning hojatini ravo etuvchi, ammo butun olamdagilardan behojat, tug`ilmagan va tug`magan, azaliy va abadiy zot, tengsiz iloh. U zot qiyomat kunining egasi, butun olamlarning podshohi, murabbiysi, ilm, iroda, qudrat sohibi. Dunyoda jamiyki jonzotlarning borligi va yo`qlikka yuz tutishi, mavjudligi paytidagi jarayonlar, hayot, o`lim, rizq, baxt-barcha-barchasi Allohning ixtiyori, ilmi va qudratiga tobe. Abadiy va mangu barhayot, buyuk qudrat egasi bo`lmish Allohning sifatlari Qur`oni karimda o`z ifodasini topgan.

Fano-yo`q bo`lish, yo`qlik, hechlik, tugash, o`lish demakdir. Fano- o`zligi va bandaligi maqomini Haq taolo barobarida yo`q deb bilmoq, barcha mayl-istak va tamannolaridan voz kechib butun olam va olamdagilar Xudoning oldida hech narsa emasligini teram anglamoq, bashariy sifatlar-yomon axloq va fe`llarini tark qilib, Allohning go`zal sifatlari va ilohiy fe`llariga erishish, ular bilan botin olamini ezamoq, ya`ni bashariy irodadan ilohiy irodaga ko`chmoq, narsa va ashyolarning so`fiy nazarida barham topmog`idir.

Baqo-mangulik, abadiylik, boqiylik. Inson yomon odatlarini tark qilib, uning o`rnini ezgu, go`zal xislatlar egallashi, Allohning sifat va xususiyatlari bilan bezanishiga aytiladi. Inson o`zini, atrofidagi xalq va ashyoni ko`rmasligi baqodir. Yomondan foniy, yaxshida boqiy bo`lmoq surati bilan inson tasavvuf yo`liga kiradi.

Simurg`-o`ttiz qush,anqo.Sharq xalqlari mifologiyasida sehrli,barcha narsaga qodir bo`lgan qushning ramzi.U burgutsimon tumshuqli,katta qanotli,bahaybat va patlari ham sehrli bo`lgan ulkan qush sifatida tasavvur etiladi.Alloh taolo,Aqli Kull,komil inson,g`ayb olamining asrori.

Kim magar Simurg` ko`rguzgay liqo,

Bu fanolarin yetishgay ul baqo.

Alisher Navoiy

Tavhid-Allohning birligiga ishonish,Uni yagona deb bilish,Allohning zotida ham sifatlarida ham,ishlarida ham ,fe`ida ham,ismlarida ham,hukmlarida ham sherigi yo`q deb bilish,e`tiqod qilish.So`fiylar e`tiqodida tavhid Allohning azal va abadda sobit vahdoniyatiga ishonchdir.Olimlar tushunchasida bu e`tiqodga taalluqli bo`lsa,so`fiylar uchun bu maqsad,ma`rifat,mushohada hisoblanadi.Birinchisi bilish va tasdiq etishga asoslansa,ikkinchisi zavqiy idrokka tayanadi.Imom G`azzoliy fikriga ko`ra, "Tavhid shunday sharafli maqomdurki,tavakkul,rizo,Allohga taslimiyat hollari ayni shu martabaning mevalaridir".

Har kishikim qismi tahvid aylading,

Boisi tajrid-u tafrid aylading.

Alisher Navoiy

Istig`no-Alloh ila istig`no. Solikning o`zi uchun Allohning kifoya ekanligiga inongan holda Undan boshqasiga ehtiyoj tuymasligi va Undan o`zgaga o`zini munosib ko`rmasligidir.Bir kimsa o`zini qanchalik Allohga muhtoj,faqir deb bilsa,u Alloh-la shunchalik boy(istig`no) bo`ladi.Allohdan istig`no esa kufrdur.Va manbalarda istig`no solikning bosib o`tishi kerak bo`lgan yeti vodiydan beshinchisi.

Ey g`aniy,ushshoqdin mustag`niy o`ldung,bilmading,

Kim fano ahlig`a sultonlig`din istig`no emish.

Alisher Navoiy

Ishq vodiysi-solikning bosib o`tishi kerak bo`lgan yeti vodiy{bosqich}ning ikkinchisi.

Kir vodiysi ishq ichra yengilrakki,bu yo`lda,

O`zluk yukini tashlamag`on asru horodur.

Alisher Navoiy

Ma`rifat-aql-u donish,amaliy bilim tanish,fahm,tasavvurga xos ilm;hol sirlari va va ilohiy haqiqatga tegishli ilmi urfon.U kashf va ilhom bilan hosil bo`lgan vositasiz bilim,ma`naviy va ichki tajriba bilan o`rganiladigan bilim,tasavvufiy irfon.

Shariat-shariat va haqiqatning farqlari xuddi Hazrati Muso va Hazrati Xizr o`rtasidagi farq kabidir.Hazrati Musoning bilgan hukmlari-shariat,Hazrati Xizrniki esa haqiqat edi.Shariatning hukmlari umumiy bo`lib,barchani birlashtiradi.Haqiqatning hukmlari esa xosdir,faqat saralanganlargagina nasib etadi.Shariatga amal qilmoq majburiy.Shariat haqiqatning tashqi qobig`i,haqiqat esa shariatning mag`zidir.

Zuhur-mushohada yo`li bilan moddadan mujarrad o`laroq tomosha etilgan Haqning nurlari.

G`aflat-nafsning orzusiga ergashmoq,qalbning Haqdan g`ofil bo`lmoqligi,Uning zikridan mahrum qolmog`i.G`aflat chuqur bir uyqudir.G`aflatdagi kishilarga g`ofil

deyiladi. Haq yo`lida o`zlikdan kechib o`z holidan g`ofil bo`lmoqlik esa tavhiddir. g`aflat barcha yomonlik va jaholatning boshi hisoblanadi.

Istasang uyg`onmoq o`l bedorlar hamsuhbati,

Kim bu g`aflatni magar daf` aylagay ogohlar.

Alisher Navoiy

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Navoiy ijodining bebaho namunalaridan biri bo`lmish- "Lison ut-tayr" asari, nafaqat adabiy, balki diniy-falsafiy jihatdan ham beqiyos ahamiyatga ega. Asarda tasavvufiy atamalar tahlili orqali inson ruhining mukammallikka erishish yo`li, ixlos, ma`naviy poklanish va ilohiy haqiqatga intilish, komillikka yetishish yo`lidagi mashaqqatlar kabi masalalar yuksak mahorat bilan asarga singdirilgan.

"Lison ut-tayr" asari o`z davrining, qolaversa bugungi kunning ham ma`naviy ehtiyojlariga javob bera oladigan asar hisoblanadi va u orqali inson qalbida ruhiy kamolotga intilish va haqiqiy insoniylikni izlashga ilhom uyg`onadi. Shunday ekan, Navoiyning ushbu asari nafaqat tasavvufiy qarashlarning yuksak namoyishi, balki umumbashariy ahamiyatga ega manba sifatida qadrlanadi, yuksak baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Lison ut-tayr" Alisher Navoiy. Toshkent, 2023, Yoshlar matbuoti.
2. "Navoiy timsollari so`zligi". Odiljon Avaznazarov. Toshkent, 2024. Spectrum nashriyoti.
3. "Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida ramziy obrazlar talqini" S. Toshpo`latova. Toshkent, 2018. Sharq merosi jurnali
4. "Navoiy dostonlari ma`nosining falsafiy talqini", X. Karimov, Toshkent, 2019, Ma`naviyat nuri nashriyoti
5. www.ziyonet.uz
6. www.arxiv.uz
7. www.hilolnashr.uz